

HOZIRGI XITOIY TILI QUYOSH ENERGETIKASI TERMINOLOGIYASIDA POLISEMIYA VA SINONIMIYA HODISASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-96-105>

Karimova Xurshida Abdurashid qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti doktoranti

botanichkahurshika@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada xitoy tili quyosh energetikasi sohasi terminologik birliklarning polisemiya va sinonimiya hodisalari ko'rib chiqiladi. Polisemiyaga bir so'zning bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarda qo'llanishi deyish to'g'ri hisoblanadi. Ko'pincha bu hodisa ma'lum bir so'zning dastlabki ma'nosining o'zgarishi va rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi ta'kidlanadi. Olimlarning qayd etishicha, gumanitar hamda tabiiy fanlarda ko'p sonli polisemantik terminlarning mavjudligi professional muloqotda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Polisemiya tashqari, terminologiyada sinonimiya hodisasi ham keng tarqalgan. Terminologiyada sinonimiya — bu bitta tushuncha uchun ikki, uch yoki undan ortiq terminlarning mavjud bo'lishi hodisasi sifatida tushuniladi. Sinonimlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: u bitta tushunchani ifodalaydi; ma'no nozikliklari, uslubiy ranglar bilan farqlanadi, kontekstda o'zaro almashtirilishi mumkin.

Kalit so'zlar: quyosh energetikasi terminologiyasi, polisemiya, sinonimiya.

POLYSEMY AND SYNONYMY IN MODERN CHINESE SOLAR ENERGY TERMINOLOGY

Karimova Khurshida Abdurashid qizi

PhD student at

Tashkent state university of oriental languages

botanichkahurshika@gmail.com

Annotation. The article examines the phenomena of polysemy and synonymy in the terminology of the solar energy sector in the Chinese language. Polysemy is correctly understood as the use of a single word in several interrelated meanings. This phenomenon often arises as a result of the change and development of the initial meaning of a given word. Scholars emphasize that the presence of numerous polysemous terms in both the humanities and natural sciences creates difficulties in

professional communication. In addition to polysemy, the phenomenon of synonymy is also widespread in terminology. In terminology, synonymy is understood as the existence of two, three, or more terms for the same concept. The main features of synonyms are as follows: they denote the same concept; they differ in semantic nuances and stylistic connotations, and they can be interchangeable in context.

Keywords: solar energy terminology, polysemy, synonymy.

Terminlarda sinonimiya va semantik variantlilik hodisasi juda ko‘p tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan. V.M. Leychik terminlarning variantliliği muammosini “terminlarni va ularning majmuini o‘rganishda asosiy qonuniyatlarni aniqlash imkoniyati nuqtai nazaridan eng muhim va istiqbolli masalalardan biri” sifatida ko‘rib chiqadi [Leychik 2012: 188]. Terminlarning tarjima variantlarining ko‘pligi sabablaridan asosiylarini S.V. Grinev-Grinevich quyidagicha ko‘rsatadi:

1. Ko‘plab ilmiy va texnik sohalarda terminologiyaning hali barqarorlashmaganligi;
2. Terminologiyani tartibga solish va maxsus lug‘atlar tuzish bo‘yicha ishlarning yetarli emasligi va tizimsizligi;
3. Terminologiyani xalqaro darajada muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlarning sust rivojlangani. [Grinev 2009:116]

Terminologiya maktabining asoschilaridan biri D.S. Lotte terminlardagi ko‘p ma‘nolilik va sinonimiya eng muhim kamchiliklardan biri deb hisoblagan. U ko‘p ma‘nolilik deb, biron termin ikki va undan ortiq ma‘noga ega bo‘lgan holatni atagan. U polisemiyaning ikki turini ajratib ko‘rsatadi:

- termin o‘zaro semantik aloqaga ega bo‘lmagan yoki faqat uzoq ma‘nodoshlikda bo‘lgan tushunchalarga nisbatan qo‘llanilganda;
- ko‘p ma‘noli termin tarkibida nisbatan yaqin tushunchalar birlashtirilganda [Lotte 1968: 8];

Polisemiya bir so‘zning bir nechta o‘zaro bog‘liq ma‘nolarda qo‘llanishi deyish to‘g‘ri hisoblanadi. Ko‘pincha bu hodisa ma‘lum bir so‘zning dastlabki ma‘nosining o‘zgarishi va rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi ta‘kidlanadi. Olimlarning qayd etishicha, gumanitar hamda tabiiy fanlarda ko‘p sonli polisemantik terminlarning mavjudligi professional muloqotda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki polisemantik termin, avvalo, o‘zining aniqligini yo‘qotadi va kontekstga bog‘liq bo‘lib qoladi, bu esa terminlarga qo‘yiladigan asosiy talablarning buzilishiga olib keladi. Ko‘p ma‘nolilik terminlarni tarjima qilish jarayonida ham qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Agar tarjima lug‘atida har bir terminga faqat bir ma‘no to‘g‘ri kelganida, ya‘ni termin monosemik bo‘lganida, tarjima masalasi qiyinchilik tug‘dirmagan bo‘lar edi.

Yangi leksik birlik yaratilishi bilan bir qatorda uning definitsiyalash jarayoni ham kechadi. Slojenikina ta'kidlaganidek, "ilmiy muammoga turli tadqiqiy yondashuvlar va ko'plab nuqtayi nazarlar tufayli yangi termin va uning ortida turgan konsept metodologik jihatdan turli yo'nalishga ega bo'lgan olimlar e'tiborini tortadi. Shu bois termin boshqa til birliklaridan farqli ravishda tadqiqotchilarning turlicha ilmiy pozitsiyalari ta'sirida semantik jihatdan o'zgaruvchan bo'ladi" [Slojenikina 2010: 226].

Uning fikricha, terminlarning turlicha ta'riflarga ega bo'lishini terminologik ko'p ma'nolilikning ifodasi deb hisoblash to'liq to'g'ri emas. Bu holatni *definitsiyaviy variantlilik* deb atash mumkin. "Turli mualliflar tomonidan berilgan ta'riflarni bitta umumiy maxsus tushunchaning ifodasi sifatida bog'lash ularning signifikativ birligi, ya'ni terminga asos bo'layotgan konseptning umumiyliги bilan izohlanadi".

Darhaqiqat, ko'plab texnik nashrlar, ma'lumotnomalar, adabiyotlar, tavsiyalar, yo'riqnomalar hamda metodik qo'llanmalarda mualliflar odatda material bayonini terminlar va ularning ta'riflaridan boshlaydilar. Bu ta'riflar muallifning ma'lum bir mavzu bo'yicha subyektiv qarashlarini aks ettirgani sababli, terminologiyada tafovutlar yuzaga keladi [Maksimova 2020: 113].

Xitoy quyosh energetikasiga oid standartlarida ham bir terminga bir nechta ta'riflar berilganini ko'rish mumkin. Masalan, GB/T 12936-2007 太阳能热利用术语 "Quyosh energiyasidan issiqlikni to'plash va saqlashda foydalanish terminlari" standartida Quyoshning gorizontali tekislikdagi yo'nalishini bildiruvchi 方位角 *azimut* terminiga quyidagi ta'riflar berilgan: 1. Astronomiyada shimoliy yarimsharda janubiy nuqtadan boshlab, soat strelkasi yo'nalishida sanaladi va musbat qiymatga ega bo'ladi, teskari yo'nalishda esa manfiy qiymat beriladi. O'lchov birligi: gradus, daqiqa, soniya. 2. Geologiyada esa hisoblash shimoliy nuqtadan boshlanib, soat strelkasi yo'nalishida aniqlanadi.

GB/T 40104-2021 太阳能光热发电站术语 "Quyosh issiqlik elektr stansiyasi - Terminlar" standartida Quyosh nurlarini kichikroq yuzaga jamlab, yuqori harorat yoki quvvat olish uchun ishlatiladigan optik qurilma - 聚光器 konsentrator terminiga quyidagi ta'riflar berilgan: 1. Quyosh nurlarini jamlovchi linza yoki oyna; 2. Butun qurilma (CSP) tizimini anglatadi.

Quyosh energetikasi sohasida 吸收 *yutulish (absorption)* termini moddaning tushayotgan elektromagnit nurlanishni (masalan, quyosh nurlarini) o'ziga singdirishi jarayonini anglatadi. GB/T 12936-2007 太阳能热利用术语 "Quyosh energiyasidan issiqlikni to'plash va saqlashda foydalanish terminlari" standartida

吸收 yutulish terminiga ham ikki xil ta'rif berilgan: 1. Fotonlarning material tomonidan yutilishi; 2. Issiqlik tashuvchi suyuqlikning issiqlikni o'zlashtirishi.

Quyosh nurlarining sirtga tushish burchagini anglatuvchi 入射角 *tushish burchagi* (*incidence angle*) terminiga quyidagicha ta'rif berilgan: 1. Tushayotgan quyosh nurlari yo'nalishi bilan qabul qiluvchi sirtning normal chizig'i (tik chiziq) orasidagi burchak; 2. Qurilmaning joylashuvini aniqlash parametri. Quyosh energetikasida tushish burchagi kollektor yoki panellarning qanchalik samarali energiya yutishini belgilovchi asosiy parametr hisoblanadi: 太阳入射角 (tàiyáng rùshè jiǎo) – quyosh tushish burchagi, 光线入射角 (guāngxiàn rùshè jiǎo) – yorug'lik tushish burchagi, 入射角定律 (rùshè jiǎo dìnglǜ) – tushish burchagi qonuni.

Ko'rinib turibdiki, terminlarning ko'p ma'noliligi ularni tarjima qilishda ko'plab variantlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Keltirilgan misollar ham shuni ko'rsatadiki, quyosh energetikasi sohasida ishlovchi tarjimon doimiy ravishda mos ekvivalentni tanlash muammosiga duch keladi, bu muammoni har doim ham maxsus soha lug'atlari hal eta olmaydi. Shuning uchun tarjimonning: 1) kontekstni yaxshi bilishi, 2) soha bo'yicha umumiy bilimga ega bo'lishi, 3) va texnik mutaxassislar bilan bevosita muloqot qila olish imkoniyati muqobil tarjimaga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Texnik matnlar bilan ishlovchi mutaxassislardan nafaqat lingvistik bilim, balki grammatika, maxsus ilmiy-texnik terminologiyani amaliy qo'llash malakasi hamda maxsus lug'atlar va qo'llanmalar bilan ishlash ko'nikmasi talab qilinadi [Zudilova 2017:42].

Polisemiya dan tashqari, terminologiyada **sinonimiya** hodisasi ham keng tarqalgan. Terminologiyada sinonimiya — bu bitta tushuncha uchun ikki, uch yoki undan ortiq terminlarning mavjud bo'lishi hodisasi sifatida tushuniladi. Sinonimlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: u bitta tushunchani ifodalaydi; ma'no nozikliklari, uslubiy ranglar bilan farqlanadi, kontekstda o'zaro almashtirilishi mumkin [Golovin 1987:53].

Sinonimlar terminshunoslikda yetarlicha keng toifani tashkil etgani sababli, tadqiqotchilar ularni muayyan mezonlar asosida tasniflashni ma'qul ko'rishadi. Quyida terminshunoslikda qabul qilingan eng umumiy sinonimlar tasnifi keltiriladi.

Birinchidan, sinonimlar quyidagicha ikki asosiy turga ajratiladi: 1) Mutlaq sinonimlar (to'liq mos keluvchi sinonimlar); 2) Nisbiy yoki shartli sinonimlar (faqat ayrim hollarda yoki kontekstlarda almashtirilishi mumkin bo'lgan sinonimlar). Mutlaq sinonimlar deganda tarkibiy va ma'noviy jihatdan aynan bir xil bo'lgan, bitta tushunchani ifodalovchi terminlar tushuniladi. Boshqacha aytganda, ular bir-birining to'liq o'rnini bosishi mumkin. Nisbiy sinonimlar esa mazmun jihatidan

yaqin bo'lgan, lekin to'liq mos kelmaydigan sinonimlardir — ularning ma'nolari faqat qisman ustma-ust tushadi [Grinev 2008: 105]. Bu yerda N.V. Superanskayaning fikri alohida ahamiyatga ega: u mutlaq sinonimlar deyarli mavjud emasligini ta'kidlaydi, chunki hatto obyekt va tushuncha mos tushgan hollarda ham, ko'pincha ularning qo'llanishi, hosilalari yoki ikkilamchi shakllarida tafovutlar bo'lib turadi [Superanskaya 2012: 49]. Yana bir sabab sifatida tadqiqotchilar sintaktik farqlarni keltiradi: sinonimlar ba'zida turli grammatik qoidalarga bo'ysunadi yoki butunlay boshqa kontekstlarda ishlatiladi [Pirson 1998:170].

Natijada, bir nechta sinonimik terminlarning mavjudligi mutaxassislarni ular orasida farq izlashga undaydi. S.V. Grinev fikriga ko'ra, bu farqlar ko'pincha ahamiyatsiz bo'ladi va terminlarning mazmunini buzilishiga olib kelishi mumkin. Bitta tushunchani ifodalash uchun turli terminlardan foydalanish, mutaxassislar o'rtasida tushunmovchilik va ishonchsizlikka sabab bo'lishi mumkin.

Xitoy tilshunoslari Yin, Qiao va Chan muqobil energetika sohasida xitoy ilmiy-texnik terminlar tizimidagi terminlarda sinonimik munosabatlarni aniqlash metodlarini ko'rib chiqishgan. Ularning fikricha, sinonimlar klassifikatsiyasi, semantik tarmoqlar terminologiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Sinonimik munosabatlarni qurish va terminlarni konseptual jihatdan birlashtirish foydalanuvchilar qulayligini oshiradi. Ular tadqiqotida ikki termin orasidagi ta'riflar o'xshashligi asosida sinonimlarni aniqlash usulini taklif etganlar [Yin 2014: 45].

Quyosh energetikasi fan sohasi sifatida ilmiy asoslangan terminologiyaga ega. Biroq, energetika tizimi faoliyati va rivojlanishi tashqi omillar (iqtisodiyotning liberallasuvi, energiya bozorlarining paydo bo'lishi va hokazo) sababli o'zgarishi munosabati bilan termin tizimi kengaymoqda va uning xarakteri barqaror bo'lmay qolmoqda. XXRning GB/T 12936-2007 太阳能热利用术语 Quyosh energiyasidan issiqlikni to'plash va saqlashda foydalanish terminlari, GB/T 31163-2014 太阳能资源术语 Quyosh energiya resurslari terminlari, GB/T 40104-2021 太阳能光热发电站术语 Quyosh issiqlik elektr stantsiyasi terminologiyasi standartlaridan umumiy 700ta termin ko'rib chiqildi va ular orasidan 32ta sinonim terminlar aniqlandi. Ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

总日射计 piranograf va 总辐射计 piranograf – quyosh nurlanishini o'lchovchi asbob. *Quyosh nurlanishining umumiy intensivligini avtomatik ravishda o'lchab, nurlanish-vaqt koordinata o'qida grafik shaklida chizadigan umumiy quyosh nurlanishini o'lchagich.*

地球辐射表 pirgeometr va 大气辐射表 pirgeometr - Yer yuzasidan va atmosferadan chiqadigan uzun to'liqlik (infratovushli) issiqlik nurlanishini o'lchash

uchun ishlatiladigan asbob. U quyosh energetikasi tadqiqotlarida keng qo'llaniladi. *Qabul qiluvchi yuzaning yuqori yarim shari yo'nalishidagi uzoq to'liqlik nurlanish intensivligini o'lchash moslamasi.*

反射比 refleksiya nisbati va 反射因数 refleksiya ko'effitsiyenti - Bu ko'rsatkich tushayotgan nurlanish oqimining (yorug'lik yoki issiqlik nuri) qanchasi sirt tomonidan aks ettirilishini ifodalaydi. Yuzadan qaytgan nurlanish oqimi bilan tushayotgan nurlanish oqimi orasidagi nisbatni bildiradi.

Tanlab olingan sinonim terminlar S.V.Grinev ilgari surgan klassifikatsiyaga ko'ra, mutlaq sinonimlar (to'liq mos keluvchi sinonimlar) va nisbiy yoki shartli sinonimlar (faqat ayrim hollarda yoki kontekstlarda almashtirilishi mumkin bo'lgan sinonimlar) ga ajratildi.

1) **Mutlaq sinonimlar.** Tanlab olingan 32 ta sinonimlardan 17 tasi mutlaq sinonim bo'lib, ular aynan bir xil ma'noga ega. Ular: 太阳辐射-日射 quyoshdan nurlanish, 直接日射-直接辐射 bevosita quyoshdan nurlanish, 水平面直接日射-水平面直接辐射 gorizontali bevosita quyoshdan nurlanish, 总日射-总辐射 global quyoshli nurlanish, 散射日射-漫射辐射 diffuz quyoshli nurlanishi, 辐射表-辐射计 radiometr, 直接日射表-直接辐射表 pirgeliometr, 补偿式绝对辐射表-埃斯特朗直接日计 kompensatsiyalangan pirgeliometr-Angstrom pirgeliometri, 总日射表-总辐射表 piranometr, 总日射计-总辐射计 piranograf, 日照记录仪-日照计 geliograf, 地外太阳辐射-地外日射 yer atmosferasidan tashqaridagi quyosh nurlanishi, 换热器-热交换器 issiqlik almashinuvi qurilmasi, 平板型集热器-平板集热器 tekis plastinali kollektor, 聚光型集热器-聚光集热器 konsentratsion quyosh kollektori, 反射仪-反射率测定仪 albedometer, 强制循环系统-强迫循环系统 majburiy sirkulyatsiya tizimi.

2) **Shartli sinonimlar.** Tahlil qilingan materiladan tanlab olingan sinonimlardan 15 tasi shartli sinonim sifatida qayd etildi, ular o'xshash ma'noga ega bo'lgan terminlar bo'lib, ma'lum sharoitlarda ularni teng ma'noli sifatida qo'llash mumkin. Ular: 天顶角 zenit burchagi -天顶距 zenit masofasi (ikkalasi ham zenitdan og'ish burchagini anglatadi); 日照时数 Quyoshning nurlash davomiyligi - 实照时数 Amaldagi quyosh nurlanish davomiyligi; 反射比 refleksiya nisbati -反射因数 refleksiya ko'effitsiyenti; 吸收比 absorbsiya nisbati -吸收因数 absorbsiya ko'effitsiyenti; 透射比 o'tkazuvchanlik nisbati -透射因数 o'tkazuvchanlik ko'effitsiyenti; 封闭系统 yopiq tizim - 密封系统 germetik tizim; 灵敏度 sezuvchanlik darajasi-响应度 reaksiya darajasi; 采光口 yorug'lik kirish joyi -透光口 optik ochiq joy; 散射 sochilish-漫射 diffuziya/sochilish; 后吸收-二次吸收

keyingi yutilish (ya'ni birinchi bosqichdan keyin yuz beradigan qo'shimcha yutilish jarayoni); 透射比 transmissiya nisbati-透射因数 transmissiya koeffitsienti; 排气口 havo chiqarish teshigi-空气阀 havo klapani; 退色反应-消色反应 dekoloratsiya; 校准-标定 kalibrlash; 电离气体-离子化气体 ionlashgan gaz.

1998-yilda fransuz tadqiqotchilari guruhi fransuz texnik hujjatlarida terminlarning semantik variantlarini aniqlash bo'yicha tajriba o'tkazgan. Ular tadqiqotining asosiy maqsadi terminologiya tuzilish jarayoniga ko'maklashishdan iborat edi. Ular an'anaviy terminologiyada semantik variantlilikning ikki turi mavjudligini ta'kidlashgan: to'liq sinonimlar va so'zlar orasidagi noaniq munosabatlar (fuzzy relations). Tadqiqot natijalari terminologiya bo'yicha mutaxassislar tomonidan tahlil qilingan va u eksperiment uchun tanlangan sinonimik juftliklarining yarmi aynan semantik variantlik ekanligi tasdiqlangan.

Olimlar "semantik variantlilik" tushunchasiga faqat bir xil grammatik toifaga mansub so'zlar o'rtasidagi sinonimlikni emas, balki turli grammatik toifalarga mansub so'zlar o'rtasidagi sinonimik munosabatlarni ham kiritganlar. Masalan, *heat* (issiqlik/isitish) va *thermal* (issiqlik) so'zlari. Ingliz tilidagi *heat power plant* va *thermal power plant* iboralari sinonim bo'lib, ikkalasi ham "issiqlik elektrstansiyasi" degan ma'noni anglatadi [Maksimova 2020: 122].

Shunday qilib, olimlar ko'p elementli terminlarda sinonimik bog'lanishlar kompozitsion xarakterga ega, deb hisoblab, eksperiment davomida ko'p komponentli iboralardagi semantik munosabatlarni aniqlash uchun uchta qoidani ajratib ko'rsatdilar:

1. Asosiy komponentlar bir xil, yordamchi komponentlar esa sinonim bo'ladi (*general collector – common collector* / umumiy tok qabul qiluvchi qurilma);
2. Asosiy komponentlar sinonim, yordamchi komponentlar esa bir xil bo'ladi (*electric equipment – electrical fittings* / elektrouskuna; *control panel – control board* / boshqaruv paneli);
3. Asosiy va yordamchi komponentlarning ikkalasi ham sinonim bo'ladi (*normal running – right working* / normal ish rejimi) [Maksimova 2020:123].

Biz ham xitoy tilida quyosh energetikasi terminologiyasida aniqlangan sinonim terminlarni asosiy yoki yordamchi komponentlarining sinonimligidan kelib chiqib, ushbu uch guruhga ajratdik:

1. Asosiy komponentlar bir xil, yordamchi komponentlar esa sinonim: 反射比-反射因数 /refleksiya nisbati - refleksiya koeffitsiyenti (bu yerda 反射 *refleksiya* termini asosiy komponent sifatida kelyabdi; 比 nisbat-因数 *koeffitsient* terminlari o'zaro sinonim) ; 吸收比-吸收因数/ absorbsiya nisbati-absorbsiya

koeffitsiyenti (bu yerda 吸收 *absorbsiya* termini asosiy komponent sifatida kelyabdi; 比 nisbat-因数 *koeffitsient* terminlari o‘zaro sinonim) ; 透射比-透射因数 / o‘tkazuvchanlik nisbati - o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti (bu yerda 透射 *o‘tkazuvchanlik* termini asosiy komponent sifatida kelyabdi; 比 nisbat-因数 *koeffitsient* terminlari o‘zaro sinonim) va h.k.

2. Asosiy komponentlar sinonim, yordamchi komponentlar esa bir xil: 地外太阳辐射-地外日射/ yer atmosferasidan tashqarida quyosh nurlanishi (bu yerda quyosh nurlanishi termini asosiy komponent hisoblanadi va u 辐射-日射 terminlari orqali ifodalangan; yordamchi component esa bir xil: 地外 yer atmosferasidan tashqarida);

3. Asosiy va yordamchi komponentlarning ikkalasi ham sinonim: 太阳辐射-日射/ quyosh nurlanishi (bu yerda har ikkala component sinonimligiga guvoh bo‘lamiz: 太阳-日 quyosh hamda 辐射-射 nurlanish);

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, terminlardagi polisemiya va sinonimiya maxsus sohalarda kam o‘rganilgan. Chunki so‘zlarning o‘xshashligi yoki ma‘nodagi noaniqlikni bartaraf etish bo‘yicha olib borilgan ishlar asosan yirik korpuslarga mo‘ljallangan statistik metodlarga asoslanadi. Texnik hujjatlar esa odatda o‘rta hajmli korpus hisoblangani uchun, bu usullarni ularga tatbiq etish mumkin emas [Hammon 1998: 498].

Quyosh energetikasi sohasi terminlarida semantik variantlilik mavjudligini quyidagi sabablar bilan asoslash mumkin: standart va texnik hujjatlardagi tafovutlar – terminlarning ta’riflari turlicha bo‘lishi, ularning kengaytirilishi yoki ma’lum bir maqsad uchun qo‘shimcha elementlar bilan boyitilishi variantlilikka olib keladi;

Xulosa qilib aytganda, terminlarda polisemiya ularning tarjima variantlari mavjud bo‘lishiga olib keladi. Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, tarjimon doimo kerakli ekvivalentni tanlash muammosiga duch keladi, bu muammoni har doim ham maxsus lug‘at hal eta olmaydi. Kontekstni bilish, tarjima qilinayotgan sohaga oid umumiy bilimga ega bo‘lish, shuningdek, texnik mutaxassislar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati muqobil tarjimani ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Xitoy tili quyosh energetikasi sohasi sinonimlarini tadqiq etish uchun XXRning GB/T 12936-2007 太阳能热利用术语 Quyosh energiyasidan issiqlikni to‘plash va saqlashda foydalanish terminlari, GB/T 31163-2014 太阳能资源术语 Quyosh energiya resurslari terminlari, GB/T 40104-2021 太阳能光热发电站术语 Quyosh issiqlik elektr stantsiyasi terminologiyasi standartlari tanlab olindi, umumiy 700ta termin ko‘rib chiqildi va ular orasidan 32ta sinonim terminlar

aniqlandi. Sinonim terminlar mutlaq va nisbiy sinonimlarga ajratildi. Sinonim terminlar asosan ikki komponentdan iborat bo'lgani sababli, komponentlar bir xil yoki sinonimligiga ko'ra 3 turga ajratildi. Terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalari muqarrar hodisa deb hisoblayman. Ularni faqatgina salbiy omil sifatida emas, balki kasbiy kommunikatsiyaning sifatini oshiruvchi vosita sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гринев-Гриневич С.В. Введение в терминографию: как просто и легко составить словарь: учеб. пособие. 3-е изд., доп. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. с 116
2. Головин, Б. Н. Лингвистические основы учения о терминах / Б. Н. Головин, Р. Ю. Кобрин. – М.: Высшая школа, 1987. С 53
3. Зудилова Е.Н., Анурова О.М. Роль междисциплинарных связей при переводе терминов электросистемы воздушного судна // Недели науки- 2017 факультета ИЯ МАИ-НИУ: материалы науч. конф., Москва, 01-30 апреля 2017 г. М.: Изд-во «Перо», 2017. С. 42
4. Каримов, Акрамджан. "Некоторые теоретические аспекты образования терминов китайского языка." *Востоковедения* 1.1 (2015): 14-23.
5. Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. 5-е изд. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. с. 188
6. Лотте, Д. С. Как работать над терминологией: основы и методы / Д. С. Лотте. – М. : Наука, 1968. – с. 8
7. Максимова Н.В. Современная электроэнергетическая терминология: структурный и семантический аспекты: дисс. ...канд. филол. наук. – Мытищи, 2020. С 123
8. Насирова С.А. Общественно-политическая терминология в современном китайском языке: Автореф.дисс... д-ра филол.наук. – Ташкент, ТГУВ, 2020. – 70 с
9. Сложеникина Ю.В. Терминологическая вариативность: Семантика, форма, функция. 2-е изд., испр. М.: Издательство ЛКИ, 2010. с. 226
10. Суперанская, А. В. Общая терминология: вопросы теории / А. В. Суперанская, Н. В. Подольская, Н. В. Васильева. – М.: Либроком, 2012. С 49
11. Hammon T. Nazarenko A., Gros C. A step towards the detection of semantic variants of terms in technical documents. ACL '98/COLING '98: Proceedings of the 36th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics and 17th International Conference on Computational Linquistics. 1998. Vol. 1. P. 498–504. URL: <https://dl.acm.org/doi/10.3115/980845.980929>

12. Pearson, J. Terms in Context / J. Pearson. Vol. 1. – Amsterdam; Philadelphia : John Benjamins Publishing Company, 1998. p 170
13. Karimova X.A. Xitoyda energetika sohasi terminlarini standartlashtirish tizimi// “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №2, 2024 y. ISSN: 2181-9874. B.73-88
14. GB/T 12936-2007 太阳能热利用术语. 页 45
15. 殷希红, 乔晓东, 张运良。利用术语定义的汉语同义词发现。中国科学技术信息研究所。北京 2014.页 41
16. Каримов, Акрамджан. "Некоторые теоретические аспекты образования терминов китайского языка." Востокведения 1.1 (2015): 14-23.